

# NAVOIY VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT 2020- yil 1-aprel holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012- yil 25-sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 274-son qaroriga muvofiq korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasi yuritiladi.

## Viloyatimizda oxirgi yillarda tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilayotgan e'tibor

*Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.*

*Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.*


*Barcha shahar va tumanlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.*

*Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar vaqulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.*

*Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi Navoiy viloyati boshqarmasi ma'lumotlar bazasi asosida 2020- yil 1-aprel holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.*

## Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Navoiy viloyatida qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Korxonalar va tashkilotlar soni

(2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



### Yuridik shaxs:

Faoliyat yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi.



## Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari soni


(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

8 084



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

3 298



Oilaviy korxonona

71



Unitar korxonona

5 016



Xususiy korxonona

22




Aksiyadorlik jamiyati

120




Boshqalar

mas'uliyati cheklangan jamiyat birlik



xususiy korxonona birlik




### Mas'uliyati cheklangan jamiyat


Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagani ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismining qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


## Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-aprel holatiga ko'ra)



## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1-aprel holatiga ko'ra)




## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



### Aksiyadorlik jamiyati:

Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi.


Aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar aksiya-dorlik jamiyatining majbu-riyatlarini bo'yicha o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.


## Yangi tashkil etilgan korxonona va tashkilotlar soni

(yanvar-mart oylarida, birlikda)






## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-mart oylarida)



## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi




(2020-yil yanvar-mart oylarida, umumiy sonidagi ulushi)




2020-yil yanvar-mart oylarida 1 254 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 605 ta, xususiy korxonalar – 277 ta, oilaviy korxonalar – 324 ta, muassasalar – 28 ta va boshqalar – 20 tani tashkil etdi.



## Qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi faoliyati bilan shugʻullanayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi (1-aprel holatiga koʻra)




## Sanoat yoʻnalishida faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (2020- yil 1-aprel holatiga koʻra, birlikda)



2020- yil 1-aprel holatiga koʻra sanoat korxonalarini va tashkilotlari soni 3 009 tani tashkil etib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 150,2 % ga oshdi.

Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlari koʻpayishining asosiy omili (oʻtgan yilning mos davriga nisbatan) ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 153,9 % ga (jami sanoatdagi ulushi 91,7 %), togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 121,0 % ga (jami sanoatdagi ulushi 6,5 %), elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash – 108,3 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,4 %) va suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilish – 113,9 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,4 %) oʻsishidir.

## Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




2020- yil 1-aprel holatiga ko'ra qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 1 483 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 128,8 % ga oshdi. Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bino va inshootlar qurishda – o'tgan yilga nisbatan 116,7 % ga (jami qurilishdagi ulushi 52,2 %), fuqarolik obyektlarini qurish – 90,6 % ga (jami qurilishdagi ulushi 5,9 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari – 158,8 % ga (jami qurilishdagi ulushi 41,9 %) o'sishidir.

## Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

2020- yil 1-aprel holatiga ko'ra savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 5 510 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 227,1 % ga oshdi.

Jami savdo korxonalar va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 254,0 % ga (jami savdodagi ulushi 71,9 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 170,7 % ga (jami savdodagi ulushi 20,3 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash o'tgan yilga nisbatan – 203,8 % ga (jami savdodagi ulushi 7,8 %) o'sishidir.



- Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash
- Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo
- Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

## Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2020- yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat  
259 ta



Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash  
5 ta



Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish  
13 ta

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2020- yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



**88**

yashash bo'yicha xizmatlar



**1 152**

oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar


2020- yil 1-aprel holatiga ko'ra yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 1 240 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 133,5 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 129,6 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 92,9 %), yashash bo'yicha xizmatlarning – 220,0 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 7,1 %) o'sishidir.



## Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



2020- yil 1-aprel holatiga ko'ra axborot va aloqa sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 206 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 123,4 % ga oshdi.

Jami axborot va aloqa sohasida korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish bo'yicha xizmatlar o'tgan yilga nisbatan – 87,5 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 3,4 %);

axborot sohasidagi xizmatlar o'tgan yilga nisbatan – 130,4 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 14,5 %);


noshirlik xizmatlari o'tgan yilga nisbatan – 104,2 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 12,1 %);

dasturlar tuzish va teleradioeshittirishlar bo'yicha xizmatlar – 200,0 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 1,0 %);

kompyuter dasturlashtirish xizmatlari o'tgan yilga nisbatan – 141,3 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 31,6 %);

aloqa xizmatlarning – 118,5 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 37,4 %) o'sishidir.

## Oilaviy korxonalar soni (1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020- yilning 1-aprel holatiga ko'ra 3 298 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 426 taga yoki 3,8 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 3 201 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 331 taga yoki 3,7 martaga oshganligini ko'rish mumkin.


2020- yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 324 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 174 taga yoki 2,2 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020- yil 1-aprel holatiga ko'ra 8 084 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 733 taga yoki 151,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 7 776 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 452 taga yoki 146,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020-yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 605 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 39 taga yoki 106,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.



## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni

(2020- yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2020- yil 1-aprel holatiga ko'ra 227 tani tashkil etib, ulardan 221 tasi yoki 97,4 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 88 taga yoki 66,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar-mart oylarida viloyatimizda 16 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-mart oylarida, birlikda)






## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2020- yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni (1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
<b>Jami</b>	<b>57</b>	<b>58</b>	<b>61</b>	<b>133</b>	<b>221</b>
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	5	5	7	18	32
Sanoat	45	42	40	79	136
Qurilish	-	1	1	5	12
Savdo	4	3	4	9	18
Tashish va saqlash	2	3	3	3	3
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	-	-	1	5	4
Axborot va aloqa	-	-	-	1	1
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	-	-	-	1	2
Boshqa turlar	1	4	5	12	13

## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
<b>Jami</b>	<b>2 718</b>	<b>3 181</b>	<b>3 900</b>	<b>5 324</b>	<b>7 776</b>
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	316	436	621	814	1 085
Sanoat	572	677	807	1 074	1 385
Qurilish	391	430	524	728	1 022
Savdo	709	790	910	1 256	2 408
Tashish va saqlash	227	263	317	425	487
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	131	142	180	272	389
Axborot va aloqa	68	51	47	61	83
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	30	38	54	64	92
Boshqa turlar	274	354	440	630	825



## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni

(1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni

(1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
<b>Jami</b>	<b>403</b>	<b>577</b>	<b>870</b>	<b>3 201</b>
<i>shu jumladan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	97	144	208	433
Sanoat	104	128	213	817
Qurilish	3	12	11	47
Savdo	75	96	146	1 277
Tashish va saqlash	6	6	10	21
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	83	126	194	368
Axborot va aloqa	3	4	10	26
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	5	11	16	29
Boshqa turlar	27	50	62	183


## Navoiy viloyatida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni (2020- yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Rossiya Federatsiyasi	43	26	17
Qozog'iston Respublikasi	8	5	3
Ozərbayjon Respublikasi	2	2	-
Qirg'iz Respublikasi	1	1	-
Tojikiston Respublikasi	5	3	2
Turkmaniston Respublikasi	4	3	1
Ukraina Respublikasi	1	1	-
Belarus Respublikasi	-	-	-
Armaniston Respublikasi	-	-	-
Moldova Respublikasi	-	-	-

O'zbekiston MDH doirasida amaldagi o'zaro savdo tartibini yomonlashtirmaydigan tamoyillarga asoslangan, to'laqonli erkin savdo hududini tashkil etish tarafdoridir. Bu MDH hududida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.


Bugungi kunda Navoiy viloyati hududida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni oshib borayotganini inobatga olganda ularning asosiy ulushi (jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar nisbatan) Rossiya Federatsiyasi 19,5 %, Qozog'iston Respublikasi 3,6 %, Ozərbayjon Respublikasi 0,9 %, Turkmaniston Respublikasi 1,8 %, Tojikiston Respublikasi 2,3 % va Ukraina Respublikasi 0,5 % ga to'g'ri kelmoqda.

## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni (2020- yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



## Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Shahar va tumanlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar sonining asosiy qismi Navoiy shahri (4 182 ta), Karmana (2 880 ta), Qiziltepa (2 250 ta), Xatirchi (2 234 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




## Shahar va tumanlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni (2020- yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Navoiy viloyati	221	138	83
Navoiy sh.	73	52	21
Zarafshon sh.	16	10	6
tumanlar:			
Konimex	7	5	2
Qiziltepa	15	10	5
Navbahor	9	7	2
Karmana	55	34	21
Nurota	20	11	9
Tomdi	7	6	1
Uchquduq	9	1	8
Xatirchi	10	2	8

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Navoiy shahrida 73 tani (umumiy miqdoridagi ulushi 33,0 %), Zarafshon shahrida 16 tani (7,2 %), Karmana 55 tani (24,9 %), Nurota 20 tani (9,0 %), Qiziltepa 15 tani (6,8 %), Xatirchi 10 tani (4,5 %), Uchquduq tumanlarida 9 tani (4,1 %) tashkil etadi.

## Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning shahar va tumanlar bo'yicha soni

(2020- yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




2020- yil 1-aprel holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda Navoiy (24,9 %) va Zarafshon (8,0 %) shahar, Karmana (15,9 %), Qiziltepa (12,2 %), Xatirchi (12,3 %), Navbahor (9,4 %), Nurota (7,4 %), Uchquduq (4,5 %), Konimex (3,6 %), Tomdi (1,8 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning shahar va tumanlar bo'yicha soni


(2020- yil yanvar-mart oylarida, birlikda)

2020- yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda Navoiy (20,3 %) va Zarafshon (9,9 %) shaharlarida, Xatirchi (17,3 %), Karmana (14,1 %), Qiziltepa (10,9 %), Uchquduq (8,6 %), Navbahor (6,5 %), Nurota (5,4 %), Konimex (3,6 %), Tomdi (3,4 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.




## Shahar va tumanlar kesimida har 1 000 oilaga to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari soni<sup>1)</sup>

(2020- yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




## Shahar va tumanlar kesimida har 1 000 aholiga to'g'ri keladigan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni<sup>2)</sup>

(2020- yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




1) 2019- yil 1-yanvar holatiga ko'ra tumanlar (shaharlar) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha kengashlari ma'lumotlari asosida jamlangan.  
 2) Doimiy aholi soni 2020- yil 1-aprel holatiga ko'ra shakllantirilgan

## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining shahar va tumanlar kesimida soni (2020- yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning shahar va tumanlar kesimida soni (2020- yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




2020- yil 1-aprel holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarini shahar va tumanlar kesimida taqsimlanganda Navoiy (29,3 %) va Zarafshon (5,6 %) shaharlari, Qiziltepa (16,6 %), Karmana (16,1 %), Navbahor (8,1 %), Uchquduq (7,1 %), Xatirchi (6,8 %), Nurota (6,2 %), Konimex (2,5 %), Tomdi (1,7 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



## Shahar va tumanlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning qo‘shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi

(2020- yil 1-aprel holatiga ko‘ra, jamiga nisbatan ulushi, %)




2017-2021 yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi”ning uchinchi muhim yo‘nalishi - **xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish** hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o‘sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

## Shahar va tumanlar kesimida oilalar va faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni, birlikda



	Oilalar soni <sup>*)</sup>	Tadbirkorlik subyektlari soni	
		01.04.2019- yil	01.04.2020- yil
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>261 472</b>	<b>9 923</b>	<b>15 770</b>
Navoiy sh.	44 361	2 996	3 629
Zarafshon sh.	22 157	650	1 317
<i>tumanlar:</i>			
Konimex	7 790	271	532
Qiziltepa	38 834	1 059	2 023
Navbahor	27 846	877	1 536
Karmana	37 996	1 849	2 630
Nurota	22 579	812	1 192
Tomdi	2 395	141	256
Uchquduq	10 918	362	717
Xatirchi	46 596	906	1 938

## Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining shahar va tumanlar bo'yicha soni (2020- yil yanvar-mart oylarida, birlikda)



2020- yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar shahar va tumanlar kesimida taqsimlanganda Navoiy (16,7%) va Zarafshon (2,8%) shaharlari, Xatirchi (36,7 %), Karmana (18,2 %), Navbahor (12,3 %), Konimex (5,9 %), Nurota (3,1 %), Qiziltepa (2,5 %), Tomdi (1,5 %), Uchquduq (0,3 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

## Shahar va tumanlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni (2020- yil yanvar-mart oylarida, birlikda)



## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** - axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).


**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.



## Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) va Navoiy viloyati statistika boshqarmasining [www.navstat.uz](http://www.navstat.uz) rasmiy saytlarida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodinikiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Navoiy viloyati statistika boshqarmasi**  
**Statistik registrlarni**  
**yuritish bo'limi**  
**Tel.:71 230-84-56**

